

АКТУАР МОЛИЯ ВА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

Vol. 4 Issue 01 | pp. 429-436 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

KICHIK BIZNES FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYALASH ASOSIDA

INVESTISIYALARNI KENG JALB ETISH VA ULARNING JOZIBADORLIGINI



OSHIRISH

Otajanov Umid Abdullayevich

TIFT i.f.d., professor

umidotajanov@rambler.ru

Аннотация:

Ushbu maqola kichik biznes faoliyatini diversifikatsiya qilish orqali investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish va ularning jozibadorligini oshirishning strategik yondashuvini o'rganadi. Ushbu tadqiqot mahsulot, bozor va geografik diversifikatsiyani o'z ichiga olgan turli xil diversifikatsiya strategiyalarini o'rganadi va investitsiyalarni jalb qilishda ularning samaradorligini baholaydi. Amaliy tadqiqotlar va empirik ma'lumotlarni tahlil qilib, maqola diversifikatsiya qanday qilib moliyaviy barqarorlikning oshishiga, investorlarning ishonchini oshirishga va kichik biznesning yanada mustahkam sektoriga olib kelishi mumkinligini namoyish etadi.

Kalit so'zlar: kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, Xirshman indeksi, kichik biznesni diversifikatsiya qilish, investitsion murojaat, moliyaviy barqarorlik, investorlarning ishonchi, iqtisodiy o'sish, kichik biznesdagi innovatsiyalar.

ШИРОКОЕ ПРИВЛЕЧЕНИЕ ИНВЕСТИЦИЙ И ПОВЫШЕНИЕ ИХ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МАЛОГО БИЗНЕСА

Аннотация:

В этой статье рассматривается стратегический подход к расширению инвестиций и повышению их привлекательности за счет диверсификации деятельности малого бизнеса. В этом исследовании изучаются различные стратегии диверсификации, включая продуктовую, рыночную и географическую диверсификацию, и оценивается их эффективность в привлечении инвестиций. Анализируя тематические исследования и эмпирические данные, статья демонстрирует, как диверсификация может привести к повышению финансовой стабильности, повышению доверия инвесторов и укреплению сектора малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес и частное предпринимательство, индекс Хиршмана, диверсификация малого бизнеса, инвестиционная привлекательность, финансовая стабильность, доверие инвесторов, экономический рост, инновации в малом бизнесе

BROAD ATTRACTION OF INVESTMENTS AND INCREASE THEIR ATTRACTIVENESS ON THE BASIS OF DIVERSIFICATION OF SMALL BUSINESS ACTIVITIES

Annotation:

This article explores the strategic approach to expanding investment engagement and increasing their attractiveness by diversifying small business activities. This study explores various diversification strategies involving product, market and geographic diversification and assesses their effectiveness in attracting investments. Analyzing applied research and empirical data, the article demonstrates how diversification can lead to increased financial stability, increased investor confidence, and a more robust small business sector.

Keywords: small business and private entrepreneurship, Hirschman Index, small business diversification, investment appeal, financial stability, investor confidence, economic growth, innovation in small business

Kirish

Hozirgi globallashuv sharoitida ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotida yirik korxonalaridan ko'ra, kichik biznes vaxususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushi ortib borayotganini ko'rish mumkin. Chunki, o'tgan davr mobaynida davlat ulushi yuqori bo'lgan doimiy ravishda birlashib boradigan korxonalar va firmalar o'rtalarida kapitalga egalik o'sib boradigan nazariy paradigma o'zining amaliy tasdig'ini topa olmadi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarning kichik korxonalarida ishchilar va ishlab chiqarish ulushining o'sishi aniqlandi. Ishlab chiqarishni tashkil etishdagi tarkibiy o'zgarishlar kichik biznesning rolini qayta baholaganligini tasdiqladi. Yangi kichik korxonalarining paydo bo'lishi ish o'rinlari, ish haqi daromadlari va natijada farovonlik o'sishining asosiy manbai sifatida ko'rilga boshladi. Kichik va o'rta korxonalarining aksariyati iqtisodiyotda, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda katta rol o'ynaydi.

Tajribadan ko'rinadiki, 2023-yilda milliy iqtisodiyotimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 51,2 %ini tashkil etdi. Bu esa nafaqat O'zbekiston Respublikasida balki ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi asosiy qismini tashkil etadi va ish o'rinlari tashkil etish hamda global iqtisodiy rivojlanishda muhim hissa qo'shadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli mamlakatlarda kichik va o'rta biznes yalpi ichki mahsulotning 33 foizidan 67 foizigacha ishlab chiqaradi.

Kichik biznes sub'yektlari dunyo bo'ylab biznesning 90%i va bandlikning 50% dan ortig'ini tashkil etadi va rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda milliy daromadning 40 foizigacha o'z hissasini qo'shmoqda. Bu raqamlar norasmiy kichik va o'rta korxonalar kiritilganda yanada ancha yuqori bo'lishi kuzatiladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2030-yilga qadar o'sib borayotgan global ishchi kuchini singdirish uchun 600 million ish o'rnini kerak bo'ladi¹.

Bu dunyodagi ko'plab davlatlar uchun kichik va o'rta biznesni rivojlanishini ustuvor vazifaga aylantiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda rasmiy ish joylarining katta qismi kichik va o'rta korxonalar tomonidan yaratiladi va ular o'rtacha 10 ta ish joyidan 7 tasini

¹ Improving SMEs' access to finance and finding innovative solutions to unlock sources of capital. <https://www.worldbank.org/en/topic/sme/finance>

tashkil qiladi². Biroq, o'rganishlar shundan dalolat beradiki, rivojlangan davlatlarda ham kichik va o'rta biznesning rivojlanishiga moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi to'sqinlik qiluvchi asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatidagi tarkibiy o'zgarishlar asosida iqtisodiy tarmoqlar yo'nalishi bo'yicha xorijiy olimlardan A.Smit[3], Y.A.Shumpeter[4], E.Daxmen[5], E.Yoshinara[6], R.F.Hebert[7], J.Atkinson, D.J.Storey[8], R.Swedberg[9], R.M.Hodgetts[10], A.Szirmai, W.A.Nuade[11], J.B.Sey[12] va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

MDH mamlakatlari iqtisodchi-olimlari tomonidan ham tadqiqot mavzusi doirasidagi masalalar V.A.Rube[13], I.Ansoff[14], O.V.Komarova, T.A.Salamatova, D.Ye.Gavrilov[15], V.G.Basareva[16], Miloslavskaya [17], M.M.Barmuta, N.V.Volkova, S.A.Gavrilenko[18] va boshqalarning tadqiqot ishlarida ko'rilgan.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini o'rganishda qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Ular o'z asarlarida kichik biznesga ta'sir etayotgan omillarni chet el tajribasidan kelib chiqqan holda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojini asoslab berishgan. Bu yo'nalish bo'yicha S.S.G'ulomov[19], B.Yu.Xodiyev, B.T.Salimov, S.K.Salayev[20], U.V.G'afurov, O.A.Aripov[21], M.M.Ibragimova[22] va boshqa iqtisodchi olimlar ko'pgina ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Yuqorida keltirib o'tilgan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlarida kichik biznes sub'yektlari faoliyatini rivojlantirish, samaradorligini oshirish bo'yicha fikr-mulohazalar keltirilib, soha taraqqiyotiga hissa qo'shilgan bo'lsada, hozirgi *globalashuv va* iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, aholi iste'molini turililigini e'tiborga olgan holda raqobatbardoshlik tamoyillariga ko'ra, kichik biznes sub'yektlari sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiyalash asosida samaradorligini oshirish masalalari tadqiqotchi-iqtisodchi olimlar tomonidan hali to'liq o'rganilmagan bo'lib, mavzu doirasida tadqiqot olib borish zaruriyatini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli yondashuv usullari, qiyosiy va mantiqiy tahlil, statistik tahlil, iqtisodiy-matematik, omilli tahlil, tanlanma kuzatuv usullari, ko'p omilli ekonometrik tahlillar umumlashtirish, qayta ishlash, tahlil-sintez va prognozlashtirish usullaridan foydalanilgan. Xususan, kichik biznes sub'yektlari sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiyalash asosida samaradorligini darajasini aniqlash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi³:

1. Diversifikatsiyaning mutloq darajasi – texnologik jihatdan o'zaro bog'liq bo'lmagan tarmoqlarning umumiy miqdori sifatida aniqlanadi. Uning to'liq xarakteristikasini keltirish uchun asosiy ishlab chiqarish tarmoqlarining miqdori va ulushi (korxonalar bo'yicha tarmoqlarning umumiy miqdorida), vertikal integratsiyalangan tarmoqlar, vertikal integratsiyalanmagan tarmoqlar ko'rsatiladi.

² Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance. <https://www.worldbank.org/en/topic/sme/finance>

³ Бабаев В.Ю., Чернорук А.А. Диверсификация как инструмент управления развитием предприятия.

2. Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilinganligining integral ko'rsatkichi – korxonaning pul daromadlarini shakllanishida tarmoqlar soni (yoki xo'jalik faoliyati yo'nalishlari) va ularning hissasini hisobga olinadi. Bunday ko'rsatkichni Xerfindal-Xirshman indeksi (*HHI*) yordamida aniqlash mumkin, ya'ni konsentratsiya darajasini:

$$HHI = \sum_{i=1}^n B_i^2, \quad (1)$$

bu yerda, B_i - kichik biznes sub'yektlari sanoat ishlab chiqarishini tovar mahsuloti tarkibida i -tarmoq ulushi, n – tarmoqlar soni.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashning integral ko'rsatkichini tarmoqlarning to'planganlik koeffitsiyenti yordamida hisoblash mumkin:

$$K = 1 - \frac{100}{\sum_{i=1}^n B_i^2 \cdot (2N_i - 1)}, \quad (2)$$

bu yerda, N_i - muayyan tartibdagi qatorda i -tarmoqning tartib raqami (tovar mahsuloti tarkibida eng katta ulushga ega tarmoqqa 1-rang beriladi, eng kichik ulushga ega tarmoqqa oxirgi rang beriladi).

Ushbu keltirilgan fikr-mulohazalardan shunday xulosaga kelish mumkinki, diversifikatsiya – bu nafaqat shahar balki, qishloq hududlarini strategik barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini shakllantirishga, ham iqtisodiyot tarmoqlarini joriy raqobat ustunligini ta'minlashga yo'naltirilgan uzluksiz jarayondir.

Tahlil va natijalar

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, kichik biznes mintaqa iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u ixtisoslashuv yo'nalishi va iqtisodiy rivojlanish darajasini, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligining muhim omili bo'lib, iqtisodiy jihatdan hududiy notekisligini pasaytirishga imkon beradi. Ma'lumki, kichik biznes rivojlanayotgan joyda o'rta sinfning hissasi, aholining tashabbusi va odamlarning o'z mehnatlari natijalari uchun javobgarligi ortib bormoqda. Kichik biznes joylarda bir qator ijtimoiy funksiyalarni bajaradi, aholi bandligini ta'minlaydi, daromadlar va byudjet tizimini o'sishini ta'minlaydi. Kichik biznes innovatsiyalarning asosiy manbai sifatida namoyon bo'lib, texnik rivojlangan sohalarda va barcha iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarishni rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shdi (1-jadval).

1-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi
(umumiy hajmga nisbatan %da)

Ko'rsatkichlar	2000	2005	2010	2015	2020	2021	2022	2023	2022 yilda 200 yilga nisbatan o'zgarishi (-,+)
YAIM	31,0	38,2	60,8	64,6	55,7	54,9	51,8	51,2	20,2
Sanoat	12,9	10,0	26,6	40,6	27,9	27,0	25,9	26,9	14,0
Qurilish	38,4	50,9	52,5	66,7	72,5	72,5	71,5	74,5	36,1
Bandlik	49,7	64,8	74,3	77,9	74,5	74,5	73,9	74,1	24,4


Eksport	10,2	6,0	13,7	27,0	20,5	20,0	29,6	29,0	18,8
Import	22,8	33,7	35,8	44,5	51,7	45,3	49,4	49,7	26,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2023-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi 51,2 % ni tashkil qildi va bu o'tgan 2019 yilda 54,9 %ga teng bo'lib, YAIM tarkibida kichik tadbirkorlikning ulushining pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi. Jadval qiymatlariga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, kichik biznes sub'yektlari tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 2023- yilda 2000-yilga nisbatan 14,0 %ga oshib 26,9 %ga teng bo'lgan. Iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushning eng yuqori ko'rsatkichlari aholi bandligi va qurilish sohasida bo'lib, mos ravishda 2023-yilda 74,1 % va 74,5 %ga teng bo'lganligini kuzatish mumkin. Bu esa o'z navbatida, kichik biznes sub'yektlari faoliyatini rivojlantirish va iqtisodiyot tarmoqlari tarkibida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni takomillashtirish maqsadida, sanoat ishlab chiqarishni kengroq o'rganish va chuqurroq tahlil qilishni talab etadi.

Buning uchun avvalambor, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bo'yicha uning mazmun-mohiyatini, faoliyatini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Xorijiy adabiyotlarda «biznes» tushunchasi bo'yicha juda ham ko'plab ta'riflar berib o'tilgan, unda insoniyat, jamiyatning butun rivojlanishi tarixi u yoki bu jihatdan doimo biznes bilan bog'liq bo'lganligi ta'kidlangan.

Kichik biznes korxonalarini moliyalashtirish va ularni amalga oshirishda bank krediti alohida ahamiyatga ega. Chunki loyihalarni amalga oshirish va rivojlantirishi uchun, birinchi galda, mablag' zarur bo'ladi. Bunday mablag'ga ega bo'lishning asosiy yo'llaridan biri kredit olishdir. Tadqiqotda endi asosiy e'tiborni Namangan viloyatidagi kichik biznes sohasining bugungi kundagi holati va u sohaga yo'naltirilayotgan investisiyalarni taxlil etishga qaratamiz (1-rasm).



1-rasm. 2015-2023 yillarda kichik biznesni moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar hajmidagi ulushi

2-rasmda keltirilgan ma'lumotlar dinamikasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha jami kichik biznesni moliyalashtirish manbalari

bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar hajmidagi ulushi 2015 yilga nisbatan 2023 yilda moliyalashtirish xajmi 9,6 foizga o'sganligi kuzatildi. Bu umuman olganda mamlakatimizga investisiya kiritish ko'lami oshganligidan dalolat beradi. Lekin 2022 yilda 2019 yilga nisbatan 2,6 % ga kamaygan. Namangan viloyati bo'yicha kichik biznesni moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar hajmidagi ulushi 2015 yilga nisbatan 2023 yilda 9,9 %ga oshib. 52,8 foizga yetganligi bilan O'zbekiston Respublikasining o'rtacha qiymatiga nisbatan ijobiy natijalarga erishganligini ko'rish mumkin.

Investisiya orqali ilg'or texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarish joriy etiladi, yangidan-yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi, shuningdek yangi korxonalarining barpo etilishiga, yangi ish o'rinlarining ko'payishiga erishiladi. Bunday ijobiy natijaga tijorat banklari tomonidan xorijiy kredit liniyalarini o'zlashtirish va ular hisobidan moliyalashtirishni amalga oshirish jarayonini mahalliy hokimliklar bilan hamkorliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu bois, joriy yil davomida banklar tomonidan mahalliy hokimliklar bilan birgalikda quyidagi masalalarga, xususan:

- jalb etilgan chet el investisiyalarini mamlakatimizning barcha mintaqalariga yo'naltirish, shu bilan bir qatorda, ushbu mablag'larni eng avvalo tarkibiy qayta o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnologik yangilashni jadallashtirish va sanoat kooperatsiyasi asosida ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish loyihalarini moliyalashtirish uchun yo'naltirishga alohida e'tibor qaratish;

- xorijiy kredit liniyalari hisobidan ajratilayotgan mablag'larni oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, jumladan, go'sht-sut va meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlashga qaratilgan loyihalarga yo'naltirish, tadbirkorlarning ushbu mablag'larni o'zlashtirishiga har tomonlama ko'maklashishga e'tibor qaratiladi.

Xulosa va takliflar

Mamlakatimizda kichik biznesga investisiyalarni keng jalb etish va ularning jozibadorligini oshirish, hamkorlikdagi istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, yangi zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish asosida mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini jahon bozorlari talabi darajasiga ko'tarishga imkoniyat yaratmoqda. Ushbu kichik biznesga investisiyalarni keng jalb etishda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

- kichik biznesning investision jozibadorligini oshirishda investisiya fondlarini rivojlantirish;

- kichik biznesni moliyalashtirishga qaratilgan ixtisoslashgan fondlarni shakllantirish;

- tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'yektlarini boshlang'ich kapitalini shakllantirish uchun va ularning investision loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida uzoq muddatli kreditlar hajmini oshirish orqali mamlakatimizda investisiya faoliyatini moliyalashtirish muammolarini hal qilishga erishish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Ushbu takliflarni joriy etish orqali kichik biznes investision jozibadorligini oshirish va yetarli darajada rivojlantirish orqali quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

- investision jozibadorlikni oshirish va hududlarga investisiya kiritishni yaxshilash, bozor munosabatlarining mustahkamlanishiga yordam beradi.

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, birinchi

navbatda, investisiya maqsadlari, boshlang'ich kapitalni shakllantirish uchun uzoq muddatli kreditlar ajratish hajmini kengaytiradi.

- raqobat muhitini yuzaga kelishi mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitni yaxshilash uchun kuchli vosita bo'ladi.

- ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni ma'lum darajada hal qilinishini ta'minlash iqtisodiyotning strategik sektori hisoblangan kichik biznes sub'yektlarini rivojlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Improving SMEs' access to finance and finding innovative solutions to unlock sources of capital. <https://www.worldbank.org/en/topic/smefinance>

2. Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance. <https://www.worldbank.org/en/topic/smefinance>

3. Smith, A. (1776/1979), *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*, London: Methuen and Co.

4. Schumpeter, Joseph A. (1949), "Economic theory and entrepreneurial history", in Wohl, R. R. (ed.), *Change and the entrepreneur: postulates and the patterns for entrepreneurial history*, Research Center in Entrepreneurial History, Cambridge, Massachusetts: Harvard University Press.;

5. Dahmén, E. (1970), *Entrepreneurial Activity and the Development of Swedish Industry*, Homewood, IL: Irwin.; London: Routledge.;

6. Yoshinara E., Sakuma A., Itami K. (Стратегия диверсификации на японском предприятии).[Текст] – Токуо, Nipon Keirai, 1979. – 434 с.;

7. Hébert, R.F. and A.N. Link (1982), *The Entrepreneur*, New York: Praeger.;

8. Atkinson J., Storey D.J. (eds). *Employment, the Small Firm and the Labour Market*. London: Routledge, 1993.;

9. Swedberg, R. (1994), *Schumpeter. Om skapande förstörelse och entreprenörskap*, Stockholm: Ratio.;

10. Hodgetts, R.M., & Kuratko D.F. (2002). *Effective Small Business Management*. Dryden Press; Anya O.A. (2003) *Empowering Small and Medium Scale Enterprises in Nigeria* Enugu: CIDAP PRINTING PRESS.; Grebel, T. (2004), *Entrepreneurship – A New Perspective.*; Z.A.Yusof, D.Bhattasali. (2008) *Economic Growth and Development in Malaysia: Policy Making and Leadership.*;

11. Szirmai, A., Naudé, W.A. and Alcorta, L. (2013). *Pathways to Industrialization in the 21st Century*, Oxford: Oxford University Press.; Чёрный Л., Балдич Н. (2016) *Entrepreneurship Development Strategy: Expert Opinion*.

12. Сэй Ж.-Б. Трактат по политической экономии / Ж.-Б. Сэй. Бастиа Ф. Экономические софизмы. Экономические гармонии / Ф. Бастиа. Москва: Дело, 2000. 232 с.;

13. Рубе В. А. Малый бизнес: история, теория, практика / В. А. Рубе. Москва: ТЕИС, 2000. 231 с.; Чепуренко А. Ю. Малое предпринимательство в социальном контексте / А. Ю. Чепуренко. Москва: Наука, 2004. 475 с.;

14. Ансофф И. Новая корпоративная стратегия / И.Ансофф. - СПб.: Питер Ком, 2011;

15. Проблемы развития ремесленничества, малого и среднего бизнеса и среднего класса: монография / О. В. Комарова, Т. А. Саламатова, Д. Е. Гаврилов. Екатеринбург: Изд-во Рос. гос. проф.-пед. ун-та, 2012. 163 с.;
16. Басарева В.Г. Малый бизнес России: теоретические основы исследования, моделирование, концепция государственного регулирования. Новосибирск: ИЭОПП СО РАН, 2013.;
17. Милославская, М.М. Стратегии развития диверсифицированных корпораций в современных условиях : монография / М. М. Милославская. - Москва : Научный консультант, 2014. - 50 с;
18. Проблемы управления и развития малого и среднего бизнеса: кол. моногр./К.А. Бармута, Н.В. Волкова, С.А. Гавриленко и др.; под ред. К.А. Бармуты. - М.: ООО «Издательство «Спутник+», 2015. -172 с.; Основы предпринимательства: Часть III, учебное пособие: [в 3 ч. / В. Ю. Буров. Забайкал. гос. ун-т. – Изд. 2-е, доп. и перераб. – Чита, ЗабГУ, 2018.
19. С.С.Фуломов Тадбиркорлик ва кичик бизнес –Т.: Шарқ , 2002;
20. Салаев С.К. Кичик бизнес ривожланиш тенденцияларини моделлаштириш ва башоратлаш: иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: ТДИУ 2008. – 49 б.;
21. Aripov O.A. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish. Diss... 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti –Т.: 2020.;
22. Ibragimova M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining tarkibiy o'zgarishlar asosida samaradorligini oshirish. Diss. 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti –Т.: 2018

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)